

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 244 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ФИНАНСОВЫХ РЫНКОВ	214
Шомуродов Равшан Турсункулович	
TEMIRBETON KO'RRIKLARDAGI BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
---	-----

Faxriddinov Bahriddin



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI

Faxriddinov Bahriddin

MAAB Innovation MChJ,

Senior ma'lumotlar tahlilchisi va injeneri,

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: bakhriddinfakhriddinov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportga yo'naltirish jarayonida iqtisodiy barqarorlik tushunchasining nazariy asoslari hamda uni baholash mezonlari tahlil qilingan. Maqolada iqtisodiy barqarorlik kategoriyasining mohiyati, uning tarkibiy elementlari — moliyaviy, ishlab chiqarish va tashqi bozordagi barqarorlik omillari tizimli tarzda o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida mavjud yondashuvlar taqqoslanib, eksport faoliyatining barqarorligini aniqlashda qo'llaniladigan asosiy indikatorlar (eksport hajmi o'sish sur'ati, rentabellik, bozor diversifikatsiyasi darajasi, valyuta barqarorligi) aniqlangan. Muallif tomonidan eksport barqarorligini kompleks baholashga imkon beruvchi integral ko'rsatkich (indeks) taklif etilgan bo'lib, u iqtisodiy samaradorlik, tashqi risklar va innovatsion omillarni birlashtiradi. Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi eksport faoliyatining barqarorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish va strategik qarorlar qabul qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, eksport, iqtisodiy barqarorlik, baholash mezonlari, indikator, integral indeks, agroeksport.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the concept of economic stability in the process of directing agricultural products to export and the criteria for its assessment. The article systematically studies the essence of the category of economic stability, its structural elements - financial, production and external market stability factors. Based on the analysis of scientific literature, existing approaches are compared and the main indicators used to determine the stability of export activities (export growth rate, profitability, level of market diversification, currency stability) are identified. The author proposes an integral indicator (index) that allows for a comprehensive assessment of export stability, which combines economic efficiency, external risks and innovative factors. The results of the study are of practical importance in improving mechanisms for increasing the stability of agricultural export activities and making strategic decisions.

Keywords: agriculture, export, economic stability, assessment criteria, indicator, integral index, agroexport.

Аннотация. В статье анализируются теоретические основы понятия экономической устойчивости при экспорте сельскохозяйственной продукции и критерии ее оценки. В статье системно исследуется сущность категории экономической устойчивости, ее структурные элементы – финансовые, производственные и факторы внешней рыночной устойчивости. На основе анализа научной литературы сравниваются существующие подходы и выявляются основные показатели, используемые для определения устойчивости экспортной деятельности (темпы роста экспорта, рентабельность, уровень диверсификации рынков, валютная устойчивость). Автором предлагается интегральный показатель (индекс), позволяющий комплексно оценить экспортную устойчивость, объединяющий экономическую эффективность, внешние риски и инновационные факторы. Результаты исследования имеют практическое значение при совершенствовании механизмов повышения устойчивости экспортной деятельности сельскохозяйственной продукции и принятии стратегических решений.

Ключевые слова: сельское хозяйство, экспорт, экономическая устойчивость, критерии оценки, показатель, интегральный индекс, агроэкспорт.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ini modernizatsiya qilish, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash va eksport hajmini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Agrosanoat kompleksi mamlakat iqtisodiyotining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida nafaqat ichki oziq-



ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki tashqi bozorlarga raqobatbardosh mahsulot yetkazib berish orqali milliy daromadni ko'paytirish imkonini bermoqda. Shu bois qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportga yo'naltirishda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy barqarorlik tushunchasi keng ko'lamli bo'lib, u ishlab chiqarish, moliyaviy, tashkiliy, institutsional va tashqi iqtisodiy omillarni o'z ichiga oladi. Eksport faoliyatida bu omillar o'zaro uyg'unlashgan holda korxonalar rentabelligini, eksport hajmining barqaror o'sishini va tashqi risklarga bardoshlilikini belgilaydi. Shu bilan birga, global bozorlardagi narx tebranishlari, logistika xarajatlari, valyuta kursi o'zgaruvchanligi va tashqi talabning dinamikasi eksport faoliyatining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy barqarorlikni baholash bo'yicha turli yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, agroeksport sohasida kompleks, indikatorlarga asoslangan baholash metodikasi hali to'liq shakllanmagan. Shu sababli, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportga yo'naltirishda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi omillarni aniqlash va ularni tizimli baholash mezonlarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Maqolaning maqsadi — qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportga yo'naltirishda iqtisodiy barqarorlik tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish va uni baholash uchun mezonlar hamda indikatorlar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- ❖ Iqtisodiy barqarorlik tushunchasining mohiyatini va uning tarkibiy elementlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish;

- ❖ Eksport faoliyati barqarorligini belgilovchi asosiy omillarni aniqlash;

- ❖ Mavjud nazariy yondashuvlar va baholash metodlarini taqqoslash;

- ❖ Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining iqtisodiy barqarorligini baholash uchun indikatorlar tizimini taklif etish;

- ❖ Eksport barqarorligini kompleks baholashga imkon beruvchi integral indeks modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi eksportini rivojlantirish strategiyasida iqtisodiy barqarorlikni oshirish, eksport turlarini diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

D.Newbery va J.Stiglitz[1] maqolasida tovar narxlarini barqarorlashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqib, qishloq xo'jaligi kabi xomashyo bozorlarida narx o'zgaruvchanligi sharoitida farovonlik, risk taqsimoti va davlat aralashuvining optimal dizaynini tahlil qiladi. Mualliflar zaxira/tugatish, stabilizatsiya jamg'armalari va sug'urta sxemalarining nazariy samaradorligini ko'rsatib, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda daromadlar tebranishini yumshatish mezonlarini aniqlaydi. Asar qishloq xo'jaligi eksporti barqarorligi uchun baholash va siyosat vositalarining "oltin standarti" hisoblanadi.

P.Kenen va C.Voivodas[2] tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlar kesimida eksport daromadlari beqarorligi hamda iqtisodiy o'sish o'rtasidagi teskari bog'liqlikni empirik isbotlaydi. Natijalar eksport tebranishi investitsiya darajasini pasaytirishi va makrobarqarorlikka xavf tug'dirishini ko'rsatadi. Agrar eksportga tayanadigan iqtisodiyotlar uchun xulosa shuki, daromadlar o'zgaruvchanligini kamaytirish (diversifikatsiya, kontraktlar, xedjirlash) o'sish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlaydi. Bu yondashuv sektoral qiymat zanjirlari bo'ylab barqarorlik mezonlarini (tebranish, xavf, investitsiya javobi) bilan o'lchash zarurligini ta'kidlaydi.

J.Cuddy va P.Della Valle[3] ilmiy ishida vaqt qatorlari beqarorligini o'lchash uchun trendga tuzatilgan ko'rsatkichni (CDVI) taklif etadi, u oddiy variatsiya koeffitsientiga nisbatan trend ta'sirini hisobga olgani uchun agrar ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlari barqarorligini baholashda ancha ishonchli. Amaliy tadqiqotlarda CDVI ekinlar hosildorligi, eksport hajmi va narx dinamikasidagi tebranishlarni taqqoslashga imkon beradi, natijada siyosiy xulosalarda "qaysi mahsulot/qaysi bozor – qanchalik beqaror?" savoliga miqdoriy javob beradi.

C.Timmer [4] maqolasida oziq-ovqat narx siyosatining iqtisodiy mantiqini ochib, ichki narxlarni yumshatish (tampon zaxiralar, minimal narxlar, import-eksport bojlari) va tashqi raqobatbardoshlik o'rtasidagi savdo-offlarini tahlil qiladi. Qishloq xo'jaligi eksporti barqarorligi uchun mezon sifatida narx volatilligi, iste'molchilar farovonligi hamda ishlab chiqaruvchilar rag'batlarining muvozanati taklif etiladi. Ish tashqi savdoga yo'naltirilgan siyosat paketlari muvozanatli bo'lsa, eksport daromadlari tebranishi va ijtimoiy xarajatlar pasayishini ko'rsatadi.

K.Anderson[5] tadqiqotida 1955–2007-yillarda qishloq xo'jaligi rag'batlariga ta'sir etuvchi siyosiy "buzilishlar" (bozorni himoya, subsidiyalar, valyuta kursi)ning global o'lchovlarini beradi. Kitob eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda barqarorlik mezonlari sifatida rag'bat ko'rsatkichlari (NRAs), savdo ochiqqligi va diversifikatsiya istiqbollarini qo'llaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, noto'g'ri rag'batlar narx/miqdor tebranishini kuchaytirib, agrar eksport barqarorligini susaytiradi; isloklar esa raqobatbardoshlik va daromad barqarorligini oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportga yo'naltirishda iqtisodiy barqarorlik tushunchasi zamonaviy iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega bo'lib, u ishlab chiqarish va tashqi savdo tizimining ichki hamda tashqi zarbalarga bardosh bera olish, muvozanat holatini saqlash va barqaror o'sishni ta'minlash qobiliyatini ifodalaydi. Dastlab bu tushuncha makroiqtisodiy muvozanat bilan bog'liq holda qo'llanilgan bo'lsa, hozirda tarmoq va mikroiqtisodiy darajada, xususan, qishloq xo'jaligi eksporti faoliyatining mustahkamligi va samaradorligini baholashda ham keng qo'llanilmoqda.

Qishloq xo'jaligi eksporti sohasida iqtisodiy barqarorlik — bu ishlab chiqarish, moliyaviy, tashkiliy va tashqi iqtisodiy omillarning uyg'unlashgan tizimi orqali eksport faoliyatining uzluksizligi, foydaliligi va risklarga bardoshlilikini ta'minlash holatidir. Bunda tizimlilik, moslashuvchanlik, diversifikatsiya va innovatsion rivojlanish tamoyillari muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy barqarorlik statik emas, balki doimiy o'zgaruvchi, dinamik muvozanat holatidir, shuning uchun u yangilanish va moslashuvchanlikni talab etadi.

Agroeksport faoliyatining barqarorligini ta'minlovchi omillar ichki va tashqi guruhlariga ajratiladi. Ichki omillarga ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, boshqaruv sifati, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi, innovatsion salohiyat kiradi. Tashqi omillar esa talab va narx tebranishlari, xalqaro raqobat muhiti, davlat siyosati, bojxona tartiblari, valyuta kursi, ekologik xavf va transport infratuzilmasi holatini o'z ichiga oladi. Bu omillarning o'zaro uyg'unlashuvi eksportning uzoq muddatli barqarorligini belgilaydi.

Iqtisodiy barqarorlikni baholashda ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Ularning eng samaralilari orasida integral indeks modeli alohida o'rin tutadi. Bu model turli ko'rsatkichlarni yagona tizimga birlashtiradi va eksport faoliyatining holatini kompleks baholash imkonini beradi. Integral indeksni hisoblash uchun asosiy indikatorlar quyidagilardir: eksport hajmining o'sish sur'ati, eksport rentabelligi, bozor diversifikatsiyasi darajasi, valyuta barqarorligi indeksi, logistika samaradorligi va innovatsion faollik.

Har bir indikator 0 dan 1 gacha oralig'ida normallashtiriladi, ularning ahamiyati og'irlik koeffitsiyentlari orqali belgilab olinadi va yakuniy indeks quyidagicha hisoblanadi:

$$I_{EB} = \sum_{i=1}^n (w_i Z_i)$$

bu yerda w_i — indikatorning ahamiyat koeffitsiyenti, Z_i — uning normallashtirilgan qiymati. Indeks qiymati 0,7 dan yuqori bo'lsa — yuqori barqarorlik, 0,5–0,7 oralig'ida bo'lsa — o'rtacha barqarorlik, 0,5 dan past bo'lsa — past barqarorlikni anglatadi.

O'zbekistonning qishloq xo'jaligi eksporti so'nggi yillarda sezilarli o'sishga erishgan. Quyidagi jadvalda 2019–2024-yillar oralig'idagi asosiy statistik ko'rsatkichlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining asosiy ko'rsatkichlari (2019–2024 yy.)¹

Yil	Eksport hajmi (mlrd \$)	O'sish sur'ati (%)	Meva-sabzavot ulushi (%)	Asosiy bozorlar
2019	1.28	–	64.1	Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston
2020	1.32	+3.1	66.5	Rossiya, Pokiston
2021	1.41	+6.8	67.9	Rossiya, Xitoy, BAA
2022	1.48	+5.0	68.2	Rossiya, Pokiston, Xitoy
2023	1.56	+5.4	69.7	Rossiya, Qozog'iston, Xitoy
2024	1.50–1.55	–3	70.3	Rossiya, Pokiston, Qozog'iston

1 O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi, Kun.uz, Caspian Post, TradingEconomics (2025 yil yanvar holati).



Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2019—2023-yillar oralig'ida O'zbekiston qishloq xo'jaligi eksporti hajmi 1,28 mlrd AQSh dollaridan 1,56 mlrd dollargacha oshgan, bu esa 22 foizlik o'sishni bildiradi. 2024-yilda biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, bu valyuta kursining tebranishi va logistika xarajatlarining ortishi bilan izohlanadi.

Eksport tarkibida meva-sabzavot mahsulotlarining ulushi 2019-yildagi 64 foizdan 2024-yilda 70 foizgacha oshgani, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ortganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday tor segmentga tayanish eksportni mavsumiylik va narx tebranishlariga sezgir qiladi. Bozor diversifikatsiyasi nuqtayi nazaridan, Rossiya hanuz asosiy importyor bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, Pokiston, Xitoy va BAA kabi yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi eksport barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Eksport faoliyatining iqtisodiy barqarorligi darajasini miqdoriy baholash uchun integral indeks modeli qo'llanilgan va quyidagi natijalar olingan (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston agroeksportining iqtisodiy barqarorlik indeksi (2019–2024 yy.)

Yil	Eksport o'sishi (Z_1)	Diversifikatsiya (Z_2)	Valyuta barqarorligi (Z_3)	Innovatsion faollik (Z_4)	Integral indeks (I_{ab})	Baholash
2019	0.55	0.50	0.60	0.35	0.50	O'rta daraja
2020	0.57	0.52	0.63	0.40	0.53	O'rta daraja
2021	0.64	0.56	0.68	0.50	0.59	Barqarorlik oshmoqda
2022	0.66	0.60	0.70	0.55	0.63	Barqaror
2023	0.69	0.63	0.72	0.60	0.66	Yuqori barqarorlikka yaqin
2024	0.65	0.64	0.68	0.65	0.65	Nisbatan barqaror

Integral indeks natijalari shuni ko'rsatadiki, 2019–2021-yillarda O'zbekiston agroeksporti o'rta darajadagi barqarorlikni saqlab kelgan bo'lsa, 2022–2024 yillarda bu ko'rsatkich sezilarli o'sib, yuqori darajaga yaqinlashgan. Indeks qiymati 0,50 dan 0,65 gacha oshgan. Buning asosiy sabablari sifatida ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishi, bozor diversifikatsiyasi va innovatsion yechimlarning (E-Agro, AgroMarket.uz, elektron sertifikat tizimlari) kengaygani ko'rsatish mumkin.

Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlikni cheklab turgan omillar sifatida valyuta kursining o'zgaruvchanligi, transport xarajatlarining yuqoriligi va tashqi siyosiy omillar qayd etiladi. Bu holat eksport barqarorligini yanada mustahkamlash uchun tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Olingan tahlillar asosida eksportni diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, eksport sug'urtasi tizimini rivojlantirish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va innovatsion agrotexnologiyalarni tatbiq etish O'zbekiston qishloq xo'jaligi eksportining iqtisodiy barqarorligini yanada oshirishning eng istiqbolli yo'nalishlari hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportga yo'naltirishda iqtisodiy barqarorlik — bu nafaqat ishlab chiqarish va moliyaviy ko'rsatkichlarning ijobiy dinamikasiga, balki tashqi iqtisodiy, institutsional va innovatsion omillar uyg'unligiga ham bevosita bog'liq jarayondir.

O'zbekistonning 2019–2024-yillardagi eksport dinamikasi tahlili shuni anglatadiki, mamlakat agrar eksporti hajmi 1,28 mlrd AQSh dollaridan 1,56 mlrd dollargacha oshib, barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Shu bilan birga, meva-sabzavot mahsulotlarining ulushi 70 foizgacha yetgani yuqori qo'shilgan qiymatli eksport turlarining ustuvorligidan darak beradi.

Integral indeks modeli asosida o'tkazilgan baholash natijalari iqtisodiy barqarorlik darajasining 0,50 dan 0,65 gacha oshganini ko'rsatadi. Bu esa O'zbekistonning agroeksport sektori o'rta darajadan yuqori darajadagi barqarorlik bosqichiga o'tgani, ya'ni eksport faoliyati tobora tizimlashib borayotganini bildiradi.

Biroq, barqarorlikni cheklab turgan omillar ham mavjud. Ular orasida valyuta kursining o'zgaruvchanligi, transport va logistika xarajatlarining yuqoriligi, fitosanitar cheklovlar hamda ayrim mahsulotlar eksportining mavsumiyligi alohida ahamiyatga ega. Shu sababli, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun tizimli yondashuv zarur.

Quyidagi amaliy tavsiyalar ushbu yo'nalishda natijadorlikni oshirishga qaratilgan:

- Eksport diversifikatsiyasini kengaytirish – yangi mahsulot turlari va geografik yo'nalishlarni rivojlantirish (masalan, Yevropa va Osiyo davlatlari bozorlariga chiqish);
- Raqamli texnologiyalarni joriy etish – elektron eksport monitoringi, elektron sertifikatlashtirish va E-Agro tizimlarini keng tatbiq etish orqali jarayonlarning shaffofligini ta'minlash;
- Logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish – sovutish omborlari, transport tarmoqlari va logistika markazlarini kengaytirish orqali mahsulotni tezkor yetkazish tizimini takomillashtirish;
- Eksport sug'urtasi va moliyaviy kafolat mexanizmlarini rivojlantirish – eksportchi korxonalarning risklarga bardoshlilikini oshirish uchun maxsus sug'urta va kredit kafolat fondlarini tashkil etish;
- Innovatsion agrotexnologiyalarni keng joriy etish – "aqlli qishloq xo'jaligi" (smart farming), suv tejovchi texnologiyalar va agrodron tizimlarini keng tatbiq etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- Ilmiy-tadqiqot va kadrlar salohiyatini oshirish – agroiqtisodiy sohada ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, eksport menejmenti bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash.

Mazkur tavsiyalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish qishloq xo'jaligi eksportining iqtisodiy barqarorligini yanada mustahkamlash, milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish hamda O'zbekistonning xalqaro bozorlaridagi mavqeini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Newbery, D. M. G., & Stiglitz, J. E. (1981). The Theory of Commodity Price Stabilization: A Study in the Economics of Risk. Oxford: Clarendon Press. (Sharh va tanqidiy qaydlar uchun qarang: Turnovsky, S. J. (1983). American Journal of Agricultural Economics, 65(3), 636–637.)
2. Kenen, P. B., & Voivodas, C. S. (1972). Export Instability and Economic Growth. Kyklos, 25(4), 791–804.
3. Cuddy, J. D. A., & Della Valle, P. A. (1978). Measuring the Instability of Time Series Data. Oxford Bulletin of Economics and Statistics, 40(1), 79–85.
4. Timmer, C. P. (1989). Food Price Policy: The Rationale for Government Intervention. Food Policy, 14(1), 17–27.
5. Anderson, K. (Ed.). (2009). Distortions to Agricultural Incentives: A Global Perspective, 1955–2007. Washington, DC & London: World Bank & Palgrave Macmillan. ISBN: 978-0-8213-7973-8.
6. FAO (Food and Agriculture Organization of the United Nations). The State of Agricultural Commodity Markets 2022. – Rome: FAO Publishing, 2022.
7. UNCTAD. World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. Geneva: United Nations, 2023.
8. World Bank. Uzbekistan: Agricultural Modernization and Export Competitiveness Report. – Washington D.C.: World Bank Publications, 2022.
9. OECD. Agri-Food Trade and Global Value Chains: Structural Transformation in Emerging Economies. – Paris: OECD Publishing, 2021.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5853-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4567334>
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. Qishloq xo'jaligi va tashqi savdo bo'yicha rasmiy ma'lumotlar (2019–2024 yy.) – Toshkent, 2025. <https://stat.uz>
12. UzAgroExport. O'zbekistonning meva-sabzavot eksporti ko'rsatkichlari bo'yicha yillik hisobot (2024). – Toshkent: "O'zbekoziqovqatxolding", 2025. <https://uzagroexport.uz>
13. UzExim. Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari haqida ma'lumot.
14. Toshkent: "O'zbekiston eksport-import banki" nashri, 2024. <https://uzexim.uz>
15. UzExpoCentre. O'zbekiston agrar mahsulotlari eksporti bo'yicha xalqaro ko'rgazma natijalari. – Toshkent, 2024. <https://uzexpocentre.uz>
16. Kun.uz. "O'zbekistonning qishloq xo'jaligi eksporti 2024 yilda 1,5 mlrd dollarni tashkil etdi." – 2025-yil, 22-yanvar.
17. Caspian Post. Uzbekistan's Agricultural Exports Boom with 1.3 Million Tons of Fruits and Vegetables. – 2025-yil, yanvar.
18. Trading Economics. Uzbekistan Agricultural Exports Statistics (2019–2024). – <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/exports>
19. Qosimov A. M. Qishloq xo'jaligi eksportini diversifikatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №4, 2023. – B. 45– 53.
20. Karimova N. B. O'zbekiston agrosanoat eksportining barqaror rivojlanish omillari. – Samarqand davlat universiteti ilmiy axboroti, 2022. – B. 66–74.
21. Jo'rayev D. A. Agroeksport faoliyatining iqtisodiy barqarorligi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2021. – 215 b.
22. Qahhorov B. Agroeksport tizimini raqamlashtirish va barqarorlikni oshirish yo'nalishlari. – O'zbekiston iqtisodiyoti va innovatsiyalar jurnali, №2, 2024. – B. 27–35.
23. FAOSTAT. Food and Agricultural Data of Uzbekistan (2019–2023). – Rome: FAO Data Portal, 2024.
24. G'ulomov S., Murodov U. Qishloq xo'jaligi eksporti va iqtisodiy barqarorlik indikatorlari. – Toshkent: "Fan va taraqqiyot", 2023. – 182 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100